

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/13.06.2025.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**QODIROV ELBEK TURAYEVICH**

**SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI-BOTQOQ TUPROQLARNING ASOSIY  
XOSSALARI VA ULARNI YAXSHILASH YO‘LLARI  
(TOSHKENT VILOYATI TUPROQLARI MISOLIDA)**

**03.00.13 - «Tuproqshunoslik»**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2025**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
биологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on biological  
sciences**

**Qodirov Elbek Turayevich**

Sug‘oriladigan o‘tloqi-botqoq tuproqlarning asosiy xossalari va ularni yaxshilash yo‘llari (Toshkent viloyati tuproqlari misolida)..... 3

**Кодиров Элбек Тураевич**

Основные свойства орошаемых лугово-болотных почв и пути их улучшения (на примере почв Ташкентской области)..... 21

**Kodirov Elbek Turaevich**

The main properties of irrigated meadow-swamp soils and ways to improve them" (on the example of soils of the Tashkent region) ..... 42

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ  
List of publications ..... 45

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI**  
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**  
**DSc.03/13.06.2025.B.05.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**QODIROV ELBEK TURAYEVICH**

**SUG‘ORILADIGAN O‘TLOQI-BOTQOQ TUPROQLARNING ASOSIY  
XOSSALARI VA ULARNI YAXSHILASH YO‘LLARI  
(TOSHKENT VILOYATI TUPROQLARI MISOLIDA)**

**03.00.13 - «Tuproqshunoslik»**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona-2025**

**Biologiya fanlari falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/B1139 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Farg'ona davlat universiteti huzuridagi Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.fardu.uz](http://www.fardu.uz)) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Sodiqova Gulchexra Sattorovna**  
biologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Tashkuziyev Ma'ruf Mansurovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Jabbarov Zafarjon Abdukarimovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Guliston davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi DSc03/13.06.2025.B.05.03 - raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil « 09 » 01, soat 10<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-02; faks: (+99873) 244-44-93; e-mail: [fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (662 -raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahar, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 25 » 12 da tarqatildi.

(2025-yil « 25 » 12 2 - raqamli reyestr bayonnomasi)



**G.Yuldashev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, q.x.f.d., professor

**U.B.Mirzayev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, b.f.n., dotsent

**A.T.Turdaliyev**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi  
ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Bugungi kunda “dunyoda eng dolzarb bo‘lib turgan muammolardan biri, ekologik havfsiz oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish orqali aholini oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirishdir. Tuproqlarning ustki yupqa, ya’ni eng unumdor qatlami chegaralangan bo‘lib, dunyoda yetishtirilayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini 93,9% dan ko‘prog‘i qishloq xo‘jaligida foydalaniladigan tuproqlar ulushiga to‘g‘ri keladi”<sup>1</sup>. Bu esa mavjud yer resurslaridan, jumladan sug‘oriladigan tuproqlardan unumli foydalangan holda uning unumdorligini saqlash va tizimli ravishda yaxshilash chora-tadbirlarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Sholikorlikda foydalaniladigan tuproqlar sayyoramizda keng tarqalgan oziq-ovqat donli ekinlari yetishtiriladigan foydali maydonlaridir. U Yer yuzidagi 3 milliarddan ortiq odamni oziqlantiradi va ularni kaloriyalarining 30% dan ortig‘ini beradi. Shu nuqtau nazardan sholikorlikda foydalaniladigan tuproqlarni unumdorligini saqlash va yaxshilash dolzarb masalalardan sanaladi.

Dunyoda qishloq xo‘jaligini yanada rivojlantirish, tuproq unumdorligini saqlash, qayta tiklash, oshirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish, ekologik holatini maqbullashtirish, hozirgi sharoitda yerlarni suv-fizikaviy, texnologik, agrokimyoviy xossalarini va meliorativ holatini baholash bo‘yicha bir qator ustuvor yo‘nalishlarda ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, tuproq-iqlim sharoitiga mos keladigan agrotexnik, agrofizikaviy chora-tadbirlar ishlab chiqish, tuproq unumdorligini yaxshilash, tiklash va oshirish, fan va amaliyot yutuqlaridan keng foydalanishga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish va boshqarishda yangi texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda va muayyan natijalarga erishilmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-sonli qaroriga muvofiq, “Har bir mintaqalar tuproq-iqlim sharoitlariga mos sholini almashlab ekish dasturini tuzish va ekin maydonlarining hisobini olib borish hamda urug‘chilik xo‘jaliklarida navbatlab ekish tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari, ya’ni, bir dalada sholi ekini yetishtirish muddatini ko‘pi bilan ikki yil etib belgilash bo‘yicha ilmiy asoslangan almashlab ekish tizimi joriy qilish”<sup>2</sup> kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Shuning uchun ham, hozirgi sharoitda sholi ekiladigan sug‘oriladigan tuproqlarning unumdorligini saqlash, qayta tiklash, oshirish hamda yer resurslaridan samarali foydalanish, ekologik holatini maqbullashtirish, yerlarni suv-fizikaviy, texnologik, agrokimyoviy xossalarini va meliorativ holatini baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-sonli “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ-290-sonli “Sholi yetishtiruvchilar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashning qo‘shimcha chora-tadbirlari

<sup>1</sup> <https://www.fao.org/global-soil-partnership/resources/highlights/detail/ru/c/1446044/>

<sup>2</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 2-fevraldagi PQ-4973-son “Sholi yetishtirishni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori

to'g'risida" gi qarori, 2024-yil 2-fevraldagi "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida" gi O'RQ-903-son qonuni, shuningdek, sohada qabul qilingan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda nazarda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqotlari natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

**Muammoni o'rganilganlik darajasi.** Dunyo mamlakatlari va respublikamizda o'tloqi-botqoq tuproqlardan oqilona foydalanish, muhofazalash va uni boshqarish, o'tloqi-botqoq tuproqlar sharoitida sholi yetishtirish, o'g'itlash tizimi, o'g'itlardan oqilona foydalanish, sholi ekilgan tuproq xossalarini yaxshilash bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari V.A.Kovda, O.O.Gutorova, A.X.Sheydjen, X.D.Xurum, P.G.Zelenskiy, J.Gon, G.Jan, J.Chen, D.Yuan, K.Ruan, Ya.Gong, Q.Xu, Guo Kuishi, A.K.Gomes kabilar, shuningdek, respublikamiz olimlaridan O.Qorabekov, N.Nafeddinova, X.Karimov, R.Risqiyev, A.J.Ismanov, N.Qalandarov va boshqalar tomonidan olib borilgan. Lekin sholikorlikda foydalaniladigan o'tloqi-botqoq tuproqlarning xossalari, unumdorligi, ularda yuz berayotgan o'zgarishlarini aniqlash va tuproqlarni yaxshilashga qaratilgan ilmiy-tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan muassasaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Tuproqlar degradatsiyasi, unumdorligi, muhofazasi va ularni yaxshilashda innovatsion texnologiyalar" mavzusidagi tematik doirasida bajarilgan (2021-2025 yy).

**Tadqiqotning maqsadi** muttasil sholi yetishtirishda o'tloqi-botqoq tuproqlarda sodir bo'ladigan o'zgarishlarni, ularni unumdorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, sholi yetishtirish sharoitida tuproqning asosiy xossalari va mikrobiologik faolligini yaxshilash hamda sholi hosildorligini oshirish bo'yicha ilmiy-amaliy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlarning morfologik belgilari, fizik, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalarini hozirgi holatini aniqlash hamda muttasil sholi va beda+sholi almashlab ekishning o'tloqi-botqoq tuproqlarni xossa-xususiyatlariga va unumdorligiga ta'sirini o'rganish;

sholini muttasil yetishtirish natijasida o'tloqi-botqoq tuproqlarda oksidlanish-qaytarilish jarayonlarining borishi, temirning harakatchan shakllarini o'zgarishlarini aniqlash;

o'tloqi-botqoq tuproqlarda mikroorganizmlar soni va tarkibiy guruhlarini o'rganish, almashlab ekish tizimida tuproqdagi biologik degradatsiya darajasi va agrobiologik barqarorlik holatini baholash;

sholi yetishtirish tizimi va agrogen yuklama sharoitida biologik ko'rsatkichlarning pasayish yoki tiklanish yo'nalishlarini aniqlash va agrobiologik o'zgarishlar bosqichlarini tavsiflash;

tuproqdagi gumus fraksiyalari (gumin, fulvo kislotalar) va suvda eruvchi organik moddalarning mikrobiologik aylanishdagi ahamiyatini aniqlash;

sholi yetishtirishda foydalaniladigan o'tloqi-botqoq tuproqlarning asosiy xossalari va ularni yaxshilash yo'llari hamda sholi hosildorligini oshirish bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani Sholichilik ilmiy-tadqiqot institutining sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlari olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib o'tloqi-botqoq tuproqlarning asosiy xossaxususiyatlari va granulometrik tarkibi, agrokimyoviy xususiyatlari, mikrobiologik faolligi, bioo'g'itlarning tuproq hossalariga ta'siri, tuproqlar transformatsiyasi va sholining Iskandar navi hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqotlarda dala tajribalari O'zPITI olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari", "Методы агрохимических и агрофизических исследований в хлопковых районах" D.G.Zvyagensevning "Тупроқ микробиологiyasi va biokimyosi uslublari", F.Xaziyevning «Методы почвенной энзимологии», Ye.V.Arinishkinaning "Методы определения подвежных соединений двух и трех валентного железа" uslubiy qollanmalari hamda Tuproqshunoslik va agrokimyо ITI olimlari tomonidan ishlab chiqilgan "Руководство к проведению химических и агрофизических анализов почв при мониторинге земель" nomli uslubiy qo'llanmalari asosida amalga oshirilgan. Dala tajribalaridan olingan ma'lumotlar aniqligi va ishonchligi umumqabul qilingan B.A.Dospexovning ko'p omilli usuluda, Microsoft Exsel dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilindi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o'tloqi-botqoq tuproqlarning muttasil sholi yetishtirish sharoitida morfologik, fizik, kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalarining o'zgarish qonuniyatlari aniqlangan hamda ularni agrobiologik transformatsiyaga uchraganligi va oziq elementlarga boy madaniylashgan qatlam shakllanganligi isbotlangan;

o'tloqi-botqoq tuproqlarda sholini muttasil yetishtirish natijasida tuproqda qaytarilish jarayonining ustunligi, temirni harakatchan shakllari, gumus zaxirasi va suvda eruvchi gumus miqdorini kamayib borishi dalillangan;

tuproqdagi mikroorganizmlar miqdori, turlari va biologik faollik darajasi muttasil sholikorlik → beda+sholi almashlab ekish tizimlari tomon ortib borishi aniqlangan hamda tuproqdagi biologik degradatsiyani kamayishi va agrobiologik barqarorlik mezonlari ilmiy asoslangan;

gumusning tarkibi, suvda eruvchi organik moddalarning biologik aylanishdagi ishtiroki baholangan, ularning sholi yetishtirish jarayonidagi barqaror va labil fraksiyalar nisbatining o'zgarish qonuniyatlari aniqlangan;

sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlarning asosiy xossalarini yaxshilash, mikrobiologik faolligini tiklash hamda sholi hosildorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyanoma ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

muttasil va almashlab ekish bo'yicha sholi yerishtirishda o'tloqi-botqoq tuproqlarning asosiy xossalari va ularni yaxshilash yo'llari hamda sholi hosildorligini oshirish bo'yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan;

sholi yetishtirishda tuproqdagi gumus fraksiyalarining nisbatini (Cgk/Cfk) va tuproqdagi organik moddalarning barqarorligini yaxshilashga qaratilgan biologik o'g'itlar (Fosstim-3, Rizokom-2) qo'llashning maqbul usullari ishlab chiqilgan;

olingan natijalar asosida o'g'itlash tizimini takomillashtirishda o'g'itlar me'yorini kamaytirishga hamda tuproqdagi oziqa elementlar muvozanatini barqarorlashtirishga qaratilgan agrotadbirlar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining dala va laboratoriya usullaridan foydalanilganligi, natijalarni statistik tahlil qilinganligi, tadqiqot natijalari mutaxassislar tomonidan ijobiy baholanganligi, shuningdek, respublika va xalqaro miqyosda o'tkazilgan ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilinganligi, tadqiqot natijalarining xalqaro va respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi, natijalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Sug'oriladigan o'tloqi-botqoq tuproqlarda kechadigan oksidlanish-qaytarilish jarayonlari, organik moddalarning biotransformatsiyasi va mikrobiologik faollik o'rtasidagi murakkab o'zaro aloqalaning yoritilishi, agrobiologik holatini baholash uchun indikator ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqilishi, shuningdek, tuproq unumdorligini saqlash, ularning tiklanish yo'nalishlarini aniqlash orqali olingan ma'lumotlar tuproq resurslarini barqaror boshqarishning nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, o'tloqi-botqoq tuproqlarning agrobiologik holatini boshqarish uchun almashlab ekish (beda-sholi) tizimi, organik-mineral o'g'itlash sxemasi va suv o'tkazuvchanlik bo'yicha tuzilgan matematik model, biologik ko'rsatkichlar asosida tuproqning tiklanishi yoki degradatsiyaga yuz tutish jarayonlari baholanganligi, shuningdek, ishlab chiqilgan tavsiyalar asosida hosildorlikni 30,1-51,7 s/ga oshirish, gumus zahirasini  $\geq 2,5\%$  darajada saqlash va oshirish bo'yicha olingan natijalar suv resurslaridan oqilona foydalanish, tuproqdagi oziqa elementlar muvozanatini barqarorlashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Sholi yerishtirishda foydalaniladigan o'tloqi-botqoq tuproqlar unumdorligini yaxshilash va yuqori hosil olishda o'g'itlar va biologik preparatlarni qo'llash bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

“Sholikorlikda foydalaniladigan o'tloqi-botqoq tuproqlarning asosiy xossalari va ularni yaxshilash yo'llari”ga doir tavsiyalar Toshkent viloyati O'rta Chirchiq va Bekobod tumanlari sholi yetishtiriladigan ekin maydonlarida amaliyotga joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 29-maydagi 05/05-04-270-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur tavsiyanoma Toshkent viloyati fermer xo'jaliklari o'tloqi-botqoq tuproqlari xossa va xususiyatlarini yaxshilash hamda ushbu tuproqlardan oqilona va samarali foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqishda qo'llanma sifatida xizmat qilgan;

o'tloqi-botqoq tuproqlarning biologik faolligini yaxshilash va tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida ishlab chiqilgan agrotadbirlar Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi “Quvvat Tojiqul” fermer xo'jaligining 10 gektar maydoniga tatbiq etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi

Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 29-maydagi 05/05-04-270-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, rizobium bakteriyalar yordamida sholining ildiz rizosferasida o'g'itlarni o'zlashtirish jarayonlari tezlashishi va yaxshilanishi tufayli o'g'itlash me'yorini 25% ga kamaytirishga erishilgan;

o'tloqi-botqoq tuproqlarning unumdorligini tiklash va oshirish bo'yicha ishlab chiqilgan agrotadbirlar Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi "Qo'shboq ota" fermer xo'jaliklari tuproqlari sharoitida 10 gektar maydonida joriy etilgan. (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 29-maydagi 05/05-04-270-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, almashlab ekish joriy etilgan maydon tuproqlarida oziqa moddalari miqdori 1,2-1,5 barobarga oshgan va sholidan nazorat variantiga nisbatan 30,1-51,7 s/ga qo'shimcha hosil olish imkonini bergan;

sholidan yuqori va sifatli hosil yetishtirish bo'yicha tajribalar asosida ilmiy asoslangan agrotadbirlar ishlab chiqilgan va Toshkent viloyatining Bekobod tumanidagi "Quvvat Tojiqul" fermer xo'jaligida va "Qo'shboq ota" fermer xo'jaliklari tuproqlari sharoitida har biri 10 gektardan, ja'mi 20 gektar maydonida joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025-yil 29-maydagi 05/05-04-270-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, tuproqlar unumdorligining ortishiga erishilib, olinadigan hosil miqdori ortgan hamda qo'shimcha foyda 4,5 mln so'mga, rentabellik darajasi 66,2-86,6 foizga ko'tarilgan va 1 kg sholi tannarxi 12-13 foizga arzonlashiga erishilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotlar olingan natijalar asosida 7 ta, shu jumladan 2 ta respublika, 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ja'mi 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shu jumladan, 1 ta tavsianoma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, shundan 2 ta xorijiy va 3 ta respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va uning zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ilmiy maqolalar va dissertatsiyani tuzilishi bo'yicha atroflicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Sholi yetishtiriladigan tuproqlarning asosiy xossalari va ularni yaxshilash yo'llarini o'rganilganlik darajasini tahliliy sharhi**" deb nomlangan birinchi bobi ikki qismgan iborat bo'lib, birinchi qismida "Sholi yetishtiriladigan tuproqlarning morfogenezi, tuproq hosil bo'lish xususiyatlari va

oksidlanish-qaytarilish rejimini o'zgarishi" ga oid xorijiy va mahalliy adabiyotlar tahlili keltirilgan. Bobni ikkinchi qismi "Tuproqlarning fizik, kimyoviy va biologik xususiyatlarining o'zgarishi hamda ularni yaxshilash yo'llari" deb nomlangan bo'lib, unda sholi yetishtiriladigan tuproqlarning xossa-xususiyatlarini yaxshilashning ilg'or zamonaviy yechimlarini ahamiyatini va turli agrotexnologiyalarni qo'llash orqali tuproq xossalarini yaxshilash yo'llariga bag'ishlangan ilmiy-tadqiqot ishlari va ma'lumotlari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning "**Tadqiqot o'tkazilgan hududning tuproq-iqlim sharoitlari, obyekti va uslublari**" deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot hududi haqida umumiy ma'lumotlar, uning geografik joylashishi, geomorfologik-litologik va gidrogeologik sharoitlari, iqlimi, relyefi, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi, tadqiqotning metodologik asoslari, tajriba tizimi va o'tkazish sharoitlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dala tajribalari 2022-2024 yillarda Toshkent viloyati O'rta Chirchiq tumani Sholichilik ilmiy-tadqiqot instituti tajriba uchastkasining o'tloqi-botqoq tuproqlari sharoitida o'tkazilgan. Tajriba variantlari 3 qaytariqda olib borilgan. Tajriba maydonining bo'yi 200 m, eni 100 m, umumiy maydoni  $200\text{ m} * 100\text{ m} = 20000\text{ m}^2$ . Tajriba sxemasi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**Dala tajribasida o'g'ilarni solish me'yori va muddatlari sxemasi**

Variant	Ma'dan o'g'itlar yillik miqdori, kg /ga			Go'ng, t/ga	Fossitim-3, ml/ga	Rizakom-2, ml/ga
	N	P	K			
1-variant	Nazorat o'g'itsiz					
2-variant	120	120	120	-	-	-
3-variant	90	90	90	40	-	-
4-variant	90	90	90	-	1000	-
5-variant	90	90	90	-	-	1000
Almashlab ekish buyicha. Beda+sholi						
6-variant	60	90	60	-	-	-

Dissertatsiyaning "**O'tloqi-botqoq tuproqlarda muttasil sholi yetishtirish va almashlab ekish sharoitida tuproqning fizik xossalarining o'zgarishi**" deb nomlangan 3-bobining 3.1-paragrafida "Tajribalar o'tkazilgan o'tloqi-botqoq tuproqlarning morfologik xossalari"ga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, muntazam sholi ekiladigan yerda tuproqning quyi qatlamlarida gleylanish ancha kuchli, bu esa pastki qatlamlarda temirning oksidlangan shakllari ( $\text{Fe}_2\text{O}_3$ ) to'planishi, zang dog'lari, organik moddalarning parchalanishining sekinlashuvi va oksidlanish-qaytarilish sharoitining kuchli o'zgarishini ko'rsatadi. Ustki qatlamda gumusning nisbatan yuqoriligi, suvda eriydigan shakllarining faol ishtiroki kuzatildi.

Sholi-beda almashlab ekiladigan maydonda ustki qatlamda strukturani yaxshilanishi, kamroq gleylanish va mikrobiologik faoliyatning faolligi sezilarli bo'ldi. Ayniqsa, aeratsiyaning yaxshilanishi fonida kislorodli muhitda oksidlanish jarayonlarining faollashgani, gumus fraksiyalarining faol aylanmasi qayd etildi.

50 yillik tajriba asosida o'tloqi-botqoq tuproqlarda muttasil sholi yetishtirish natijasida tuproq morfologiyasi degradatsiyalangan, gorizontlar buzilgan, biologik faoliyat pasaygan. Agrobiologik transformatsiya jarayoni chuqur tus olib, qayta tiklanmas darajadagi o'zgarishlar sodir bo'lgan (gleylanish chuqurlashuvi, g'ovaklik yo'qolishi, Fe shakllarining migratsiyasi).

Almashlab ekish tizimi esa tuproq resurslarini saqlash va degradatsiyani sekinlashtirishda samarali agrotexnologik yondashuv hisoblanadi. 48 yillik satatsionar tajribasi tuproqning morfologik barqarorligi uchun doimiy nazorat, almashlab ekish va organik o'g'itlar bilan kombinatsiyalangan yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning 3-bobi 3.2-paragrafida "Tajribalar o'tkazilgan o'tloqi-botqoq tuproqlarning umumiy fizik xossalari" ga oid tadqiqot natijalari keltirilgan. Olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'tloqi-botqoq tuproqlarda qo'llanilgan turli agrotexnik usullar tuproqning fizik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Nazorat (o'g'itsiz) variantda solishtirma og'irlik 2,66–2,74 g/sm<sup>3</sup> oralig'ida bo'lib, hajm og'irlik 1,24–1,68 g/sm<sup>3</sup> ni tashkil etdi va bu holda umumiy g'ovaklik 38,4% dan 53,2% gacha o'zgargan.


Mineral o'g'itlar (N<sub>120</sub>P<sub>120</sub>K<sub>120</sub>) qo'llanilgan 2-variantda quyi qatlamlarda solishtirma og'irlik 2,60–2,74 g/sm<sup>3</sup> bo'lib, hajm og'irlik pasaygan (1,20–1,39 g/sm<sup>3</sup>), bu esa umumiy g'ovaklikning 55,2% gacha oshishiga olib kelgan. Ayniqsa, 51–79 sm qatlamda 55,2% g'ovaklik kuzatildi. Organik o'g'it (40 t/ga go'ng) qo'llanganda tuproq hajm og'irligi yuqori qatlamda biroz oshgan (1,42–1,47 g/sm<sup>3</sup>), lekin 52–79 sm qatlamda 54,0% g'ovaklik shakllangan, bu organik moddaning strukturani yaxshilash xususiyatini ko'rsatadi. Biologik o'g'itlar (FOSSTIM-3 va RIZOKOM-2) bilan ishlov berilgan variantlarda ham o'rta qatlamlarda g'ovaklik yuqori bo'lib, FOSSTIM-3 bilan 56–88 sm chuqurlikda 54,4%, RIZOKOM-2 bilan esa 56–88 sm chuqurlikda 52,4% ni tashkil etdi.

Eng ijobiy natijalar beda + sholi almashlab ekish tizimi (N<sub>60</sub>P<sub>90</sub>K<sub>60</sub>)da qayd etildi: 52–70 sm qatlamda hajm og'irlik 1,22 g/sm<sup>3</sup> gacha kamayib, umumiy g'ovaklik 54,8% ni tashkil etdi. Bu almashlab ekishning tuproq strukturasi va aeratsiya xususiyatlarini yaxshilovchi omil sifatida samara berishini ko'rsatadi.

3-bobning 3.3-paragrafida "O'tloqi-botqoq tuproqlarning suv-fizik xossalari"ga oid ma'lumotlar keltirilgan. Natijalarga ko'ra, mutassil ekishda gigroskopik namlik 1,88–2,17% ni, maksimal gigroskopik namlik 5,01–5,85% ni, so'lish namligi esa 8,77–10,24% ni tashkil etdi. Ayniqsa, 0–30 sm chuqurlikda bu ko'rsatkichlar yuqori bo'lib, o'simliklar uchun kam foydali, ya'ni qiyin o'zlashtiriladigan suv miqdori ko'proq to'plangan. Almashlab ekishda, barcha qatlamlarda namlik zaxiralari biroz pasaygan. Gigroskopik namlik 1,85–2,00%, maksimal gigroskopik namlik 4,90–5,95%, so'lish namligi esa 8,58–10,41% oralig'ida bo'ldi.

Dissertatsiyaning 3.4.-paragrafida "O'tloqi-botqoq tuproqlarning granulometrik tarkibi" ma'lumotlari keltirilgan bo'lib, u turli variantlar kesimida tahlil qilindi. Ma'lumotlarga ko'ra, barcha variantlarda 0–30 sm chuqurlikdagi qatlamlar og'ir qumoqli mexanik tarkibga ega bo'lib, fizik loy miqdori 48,5–55,1% oralig'ida o'zgaradi. Bu esa tuproqning ozuqa ushlab qolish, suvni saqlab turish va strukturaviy barqarorlik ko'rsatkichlari yuqoriligi bilan xarakterlanadi. Chuqurroq qatlamlarda (56

sm dan past) fizik loy miqdorining keskin kamayishi (23,3–27,8%) natijasida yengil qumoqli granulometrik tarkib ustunlik qiladi (1-rasm).



**1-rasm. Tuproqning granulometrik tarkibidagi fizik loy miqdorini tuproq qatlamlari bo'yicha taqsimoti**

Bu qatlamlar ko'proq qum va chang fraksiyalaridan tashkil topgan bo'lib, suv va ozuqa elementlarining infiltratsiyasi va yuvilishi jarayonlarini tezlashtiradi. Ayniqsa, 3-, 4- va 6-variantlarda chuqur qatlamlarda qum fraksiyalarining 50% dan ortiq bo'lishi aniqlangan. Bu holat chuqur qatlamlarning suv ushlab qolish qobiliyatining pastligi va ekologik barqarorlikning zaifligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning 3.5.§-paragrafida "Tuproqning suv o'tkazuvchanligi va filtratsiya tezligiga ta'sir etuvchi omillar" to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Natijalarga ko'ra, dastlabki bosqichda (9:30 da) tuproqning suv o'tkazuvchanlik tezligi eng yuqori – 3,33 mm/minni tashkil etdi. Vaqt o'tishi bilan tuproq namlikka to'yina boshlaydi, kapillyar va tortish kuchlari zaiflashadi, natijada filtratsiya tezligi keskin pasayadi.

So'nggi bosqichda (14:30) suv o'tkazuvchanlik tezligi deyarli nolga yaqinlashadi (0,08 mm/min). Bu bosqichda tuproq turg'un holatga o'tgan bo'lib, suv faqat gravitatsion kuch ta'sirida sekin harakatlanadi. Ushbu dinamik o'zgarish tuproqning fizik strukturasi, bo'shliqlik darajasi va gidrofob/gidrofil xususiyatlariga bog'liqdir. Tajriba natijalari asosida bu jarayon eksponensial matematik Horton model orqali ifodalandi: Model tajriba natijalariga yuqori darajada mos keldi va suv harakati dinamikasini uzluksiz shaklda ifodalash imkonini berdi.

Tajriba asosida suv o'tkazuvchanlik tezligi uchun eksponensial so'nuvchi matematik model tuzildi:

$$V(t)=0.08+3.25 \cdot e^{-0.287t}$$

Ushbu model yordamida filtratsiya jarayoni uzluksiz matematik shaklda ifodalanib, tajriba natijalari bilan yuqori darajada muvofiqlikda ekani isbotlandi. Modelning afzalligi – vaqtga bog'liq holda filtratsiya tezligini aniq prognoz qilish,


turg'un holatga o'tish vaqtini aniqlash va shundan kelib chiqib agrotexnik tadbirlarni asoslash imkoniyatining mavjudligidir.

Dissertatsiyaning 4-bobi "**Tadqiqot hududi tuproqlarining kimyoviy, fizik-kimyoviy hossalari va biologik faolligining o'zgarishi**"ga bag'ishlangan bo'lib, 4.1-paragrafida "Tuproqlarning kimyoviy va agrokimyoviy xossalarning o'zgarishi" ga oid ma'lumotlar keltirilgan. Tahlil natijalariga ko'ra, o'tloq-botqoq tuproqlarning 0–30 sm chuqurlikdagi qatlamida gumus miqdori agrotexnik variantlarga qarab 1,90% dan 2,62% gacha, azot miqdori esa 0,138% dan 0,227% gacha o'zgardi. Eng yuqori gumus va azot ko'rsatkichlari 5-variant (Rizokom bilan ishlov berilgan) va 6-variantlarda (beda+bioo'g'it) qayd etildi. Fosfor va kaliy elementlari ustki qatlamlarda 21–32 mg/kg va 120–136 mg/kg gacha yetib, ularning nisbatan yuqori ko'rsatkichlari 4- va 5-variantlarda kuzatildi. Bu esa mikrobiologik o'g'itlar va almashlab ekishning tuproq oziqa muhitiga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Karbonat (CO<sub>2</sub>) miqdori bo'yicha 7,62% dan 8,56% gacha bo'lib, eng yuqori qiymat 3-variantda aniqlangan.

O'tloqi-botqoq tuproqlarda gumus miqdori va zaxirasi agrotexnik chora-tadbirlar ta'sirida keskin farqlanadi. Muttasil sholi yetishtirilayotgan o'g'itsiz nazorat variantida (1-variant) 0–30 sm qatlamda gumus miqdori 1,92% ni, gumus zaxirasi esa 76,95 t/ga ni tashkil etdi. 0–50 sm chuqurlikda esa bu qiymat atigi 99,45 t/ga bo'lib, tuproqning organik moddalarga nisbatan kambag'alligini ko'rsatadi. Bunga qarshi ravishda, bioo'g'it qo'llanilgan va almashlab ekish amalga oshirilgan variantlar (5-variant – RIZOKOM-2 va 6-variant – beda+sholi) yuqori natijalarni berdi. 5-variantda 0–30 sm qatlamda gumus miqdori 2,45% gacha, gumus zaxirasi esa 101,67 t/ga yetdi. 0–50 sm chuqurlikda bu ko'rsatkich 139,45 t/ga ni tashkil etdi. 6-variantda ham huddi shunga yaqin gumus miqdori (2,62%) va zaxirasi (107,72–140,22 t/ga) kuzatildi. Ushbu variantda beda qoldiqlarining yerga qaytishi va biologik faollikning oshishi tufayli organik modda to'planishi barqaror kechdi. Tuproqlarda gumus zahirasi va suvda eruvchan gumus shakli o'rtasida yuqori darajadagi ijobiy bog'liqlik kuzatildi. Shu qatlamda suvda eruvchan gumus mos ravishda 0,0498%, 0,0987% va 0,0980% miqdorda qayd etildi.

RIZOKOM-2 bioo'g'iti va beda bilan almashlab ekish tizimi o'tloqi-botqoq tuproqlarda gumusning nafaqat umumiy miqdorini, balki uning o'simliklar uchun eng muhim shakli bo'lgan suvda eruvchan fraksiyasini ham oshirishda samaralidir. Bu esa sholi yetishtiriladigan tuproqlarning unumdorligini barqaror saqlashni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

4.2.-paragraf "Olib borilgan tajribalarni Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> taqsimlanishiga ta'siri" deb nomlangan bo'lib, tahlil natijalariga ko'ra, o'tloqi-botqoq tuproqlarda temir oksidining (Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub>) miqdori agrotexnik tadbirlarga bog'liq holda sezilarli o'zgarishini ko'rsatdi. Eng past temir miqdori 1-variantda (o'g'itsiz nazorat) 2,2% ni tashkil qilgan bo'lsa, eng yuqori ko'rsatkich 5-variantda (RIZOKOM-2 bioo'g'iti) 3,8% gacha yetdi. Biologik va organik o'g'itlardan foydalanilgan 5- va 6-variantlarda temir birikmalarining yuqori saqlanishi kuzatildi (mos ravishda 3,8% va 3,5%). Bu esa agrotexnik tadbirlarning oksidlanish-qaytarilish jarayonlariga ta'siri natijasida temirning nisbiy ko'pligini ta'minlayotganligini anglatadi (2-rasm).



**2-rasm. Variantlar bo'yicha tuproqlarning yuqori qatlamidagi temir oksidi miqdori**

Organik va biologik o'g'itlar bilan ta'minlangan tuproqlarda mikrobiologik faollik ortadi, bu esa temirning  $Fe^{2+} \rightarrow Fe^{3+}$  oksidlanish jarayonlarini kuchaytiradi. Natijada,  $Fe_2O_3$  miqdori ortadi. Almashlab ekish va organik modda qaytimi kuchli bo'lgan 5- va 6-variantlarda temir oksidi ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi, agrobiologik jarayonlar temirning oksidlanish holatiga ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning 4.3-paragrafi "O'tloqi-botqoq tuproqlarining sindirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi" deb nomlangan bo'lib, natijalar shuni ko'rsatdiki, o'tloqi-botqoq tuproqlarda singdirish sig'imi va singdirilgan kationlar tarkibi agrotexnik tadbirlarga qarab sezilarli farq qiladi. Muttasil sholi ekilgan (1-variant) tuproqlarda singdirish sig'imi 0–30 sm qatlamda 17,01 mg-ekv/100 g ni tashkil etib, quyi qatlamlarga tomon 10,89 mg-ekv/100 g gacha kamaygan. Singdirilgan kationlar tarkibiga ko'ra, Ca va Mg ustunlik qiladi, ularning miqdori mos ravishda 34–47% va 47–60% ni tashkil etdi. Quyi qatlamlarga tomon, Ca ulushi kamayib, Mg ulushi ortgan. Almashlab ekishda (6-variant) esa singdirish sig'imi yuqoriroq bo'lib, 0–30 sm qatlamda 20,36 mg-ekv/100 g gacha yetdi. Ca ulushi 57–62% gacha bo'lib, Mg esa 32–41% atrofida saqlanadi. K, Na kationlari esa barqaror tarzda 1,8–3,3% ni tashkil etgan.

Almashlab ekish tizimi otloqi-botqoq tuproqlarda almashinuvchi kationlar balansini saqlashda samaraliroq bo'lib, ayniqsa kalsiy va magniy miqdorining yuqori bo'lishi bilan ajralib turadi. Umuman olganda, almashlab ekish sharoitida tuproqdagi almashinuvchi kationlar yig'indisi yuqoriroq (20,36 mg-ekv gacha) va ularning foiz ulushi muvozanatli bo'lib, uzoq muddatli sholi yetishtirish uchun barqaror agroekologik sharoitni ta'minlaydi.

Dissertatsiyaning 4.4-paragrafidagi "Sholi yetishtirilgan o'tloqi-botqoq tuproqlardagi gumusning guruhiy va fraksiyaviy tarkibining o'zgarishi"ga oid ma'lumotlar keltirilgan. Tahlillar o'tloqi-botqoq tuproqlarda gumusning miqdori va fraksiyaviy tarkibi agrotexnik sharoitlarga bevosita bog'liqligini ko'rsatadi. Muttasil sholi ekilgan nazorat variantida 0–30 sm qatlamda umumiy gumus (C-umumiy) miqdori 1,10% ni tashkil etgan bo'lib, gumus tarkibidagi gumin fraksiyasi 28,1%, gumin kislotalari va fulvokislotalar yig'indisi (C<sub>gk</sub>+C<sub>fk</sub>) esa 35,4 ni tashkil qilgan. C<sub>gk</sub>/C<sub>fk</sub> nisbati 0,86 atrofida bo'lib, bu gumusning nisbatan kam barqaror shakllarda


to‘planganligini bildiradi. Chuqurlikka qarab umumiy C keskin kamayib boradi (0,21–0,19%), fraksiyaviy tarkibda esa fulvokislotalar ulushi oshib, gumusning parchalangan shakllari ustunlik qilmoqda.

Beda+sholi almashlab ekilgan 6-variantda esa yuqori darajadagi gumus to‘planishi kuzatiladi: 0–30 sm qatlamda umumiy C 1,52%, gumin fraksiyasi 30,2% ni, C<sub>gk</sub>+C<sub>fk</sub> yig‘indisi esa 69,8% ni tashkil etdi. C<sub>gk</sub>/C<sub>fk</sub> nisbati 1,17 ga teng bo‘lib, bu tuproqda gumin kislotalarining fulvokislotalarga nisbatan ustunligi va gumusning barqaror shakllarda to‘planayotganini bildiradi. Bu holat chuqurlik bo‘yicha ham saqlanib, umumiy C miqdori 70–126 sm qatlamda ham nazoratga nisbatan yuqoriligicha qolmoqda.

Muttasil sholi ekishda gumus miqdori va barqaror fraksiyalari kamayib, uning oson parchalanadigan shakllari ustunlik qiladi. Aksincha, almashlab ekish va beda bilan boyitilgan agrofon gumus miqdorini va barqaror gumin kislotasi fraksiyalarini oshiradi.

4.5-paragrafda “Tuproqdagi FeO/Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> nisbatining dinamikasi va oksidlanish-qaytarilish sharoitning o‘zgarishi”ga oid ma’lumotlar keltirilgan bo‘lib, tadqiqotlarga ko‘ra, sholi maydonlari suv bosgandan so‘ng (aprel oxiri - may oyining boshi) oksidlanish jarayonlarining qaytarilish jarayonlariga keskin o‘zgarishi kuzatiladi. Ushbu davrda salbiy oksidlanish-qaytarilish qiymatlari 0-10 sm qatlamda pH = 6,89-7,36 birlik oralig‘ida -128-167 mV gacha qayd etilgan. pH qiymatlari barcha bosqichlarda 7,2–7,5 oralig‘ida, ya’ni ishqoriy-neytral muhitda bo‘lgan.

rH<sub>2</sub> qiymatlari sholining unib chiqish (22) va to‘liq pishish (22) bosqichlarida oksidlovchi muhitni, ammo gullashda (10) esa qaytaruvchi sharoitning kuchayganligini bildiradi. Tuproqdagi pH va rH<sub>2</sub> qiymatlari oksidlanish-qaytarilish muhitning oksidlovchi yoki qaytaruvchi xususiyatlarini aniqlashda muhim parametrlar hisoblanadi. Ayniqsa, sholi yetishtirilgan tuproqlarida bu ikki ko‘rsatkich temirning valentligiga bevosita ta’sir etib, FeO/Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> nisbatining shakllanishiga asos bo‘ladi. Quyidagi 3-rasmda mutassil va almashlab ekish tizimlarida pH va rH<sub>2</sub> qiymatlarining vegetatsion bosqichlar bo‘yicha dinamikasi aks ettirilgan.



### 3-rasm. pH va rH<sub>2</sub> qiymatlarining vegetatsion bosqichlar bo‘yicha dinamikasi

O‘tloqi-botqoq tuproqlarda sholi yetishtirish sharoitida oksidlanish-qaytarilish muhitning shakllanishi, temirning valent holatlari (Fe<sup>2+</sup>/Fe<sup>3+</sup>), tuproq reaksiyasi (pH)

va oksidlanish-qaytarilish potentsiali ( $rH_2$ ) o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga ko'ra,  $FeO/Fe_2O_3$  nisbati sholining vegetatsion bosqichlari davomida sezilarli darajada o'zgaradi. Anaerob sharoit kuchaygan sari bu nisbat ortadi. Muttasil sholi ekishda bu nisbat gullash bosqichida 1,54, to'liq pishishda 2,29 gacha yetgan.

Almashlab ekishda esa 10,17–14,20 gacha keskin ko'tarilib, kuchli qaytaruvchi muhit shakllangan. Oksidlanish-qaytarilish muhit  $rH_2$  qiymati orqali aniqlanib, 8–10 atrofida anaerob holat (qaytaruvchi), 15–22 oraliqda esa oksidlovchi muhit (aerob) hukmronligini ko'rsatdi. pH qiymatlari mutassil ekishda vegetatsiya davomida o'zgaruvchan bo'lib, anaerob muhitda neytraldan kislotali muhitga o'tgan (6,89 – 5,62). Almashlab ekishda esa pH butun vegetatsiya davomida neytral va kuchsiz ishqoriy (7,2–7,5) bo'lgan.  $Fe^{2+}$  ning yuqori kontsentratsiyasi ( $FeO/Fe_2O_3 > 1$ ) aynan gullash va to'liq pishish bosqichlarida kuzatildi, bu esa mikroorganizmlarni anaerob faoliyati kuchayganligini, oksidlanish-qaytarilish sharoiti o'zgarishini bildiradi.

O'tloqi-botqoq tuproqlar sholi yetishtirishga jalb etilishi natijasida quyidagi agrobiologik evolyutsiya bosqichlardan o'tadi (2-jadval).

## 2-jadval

### Agrobiologik evolyutsiya bosqichlari

Bosqich	Tavsifi	Ko'rsatkichlar
<b>I. Hidromorf asosiy holat</b>	Suv bosishdan oldingi sharoit	pH ~6.7–6.8, $FeO/Fe_2O_3$ ~0.06–0.16
